

IBOLOGIYA FANINI O'QITISHDAGI INNOVATSIYALAR VA ILG'OR XORIJY TAJRIBALAR

FarDU o'qituvchisi
M.A.Abdurahimova

Аннотация: Yangi pedagogik axborot va telekommunikatsiya texnologiyalardan foydalanishga asoslangan ta'lism olish usulidan biri hisoblangan masofali ta'lism mohiyatini tushunishga bizni yaqinlashtiradi. Ta'limgning sintetik integral va gumanistik shakli hisoblanuvchi masofali o'qitishning aynan nazariy va amaliy masalalari ta'limgni isloq qilish sharoitlarida milliy ta'lism tizimi oldida turgan muammolar katta qismini hal etishi kerak.

Zamonaviy sharoitda O'zbekiston Respublikasining uzlusiz ta'lism tizimida rivojlangan xorijiy mamlakatlarning o'qitish amaliyotida qo'llanilayotgan ilg'or pedagogik texnologiyalar va ta'lism innovatsiyalaridan foydalanimoqda. Bilimlar sohasi va ijtimoiy amaliyot sohasi kabi jahon rivojlanish umumiyl tendensiyalari va qonuniyatlariga binoan rivojlanadi. Shuning uchun kasbiy-pedagogik ta'lism chet el tajribalarini o'rganish uni ilmiy tushunish ilg'or g'oyalardan milliy ta'lism amaliyotida foydalanish ayniqsa dolzarb hisoblanadi. "Kadrlar tayyorlash sohasidagi pozitiv jahon tajribasini hisobga olish uzlusiz ta'lism va kadrlar tayyorlash tizimi barcha elementlariga taalluqli va uning rivojlanishi omillaridan biri hisoblanadi". Shu bilan birga milliy g'oyalalar va an'analarda qurilgan ta'lism har doim milliy rivojlanish masalalariga javob berishini esda tutish kerak. Bunday ta'limgning texnik yoki tashkiliy shakllari turlicha bo'lishi mumkin ba'zan umuman odatdan tashqari tasavvur qilib bo'Imagan ko'rinishlarga ega bo'lishi mumkin. Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti boy chet el va milliy tajribalar tadqiqotlar yo'nalishlari umuman dolzarbligini tasdiqlaydi. Yangi pedagogik axborot va telekommunikatsiya texnologiyalardan foydalanishga asoslangan ta'lism olish usulidan biri hisoblangan masofali ta'lism mohiyatini tushunishga bizni yaqinlashtiradi. Ta'limgning sintetik integral va gumanistik shakli hisoblanuvchi masofali o'qitishning aynan nazariy va amaliy masalalari ta'limgni isloq qilish sharoitlarida milliy ta'lism tizimi oldida turgan muammolar katta qismini hal etishi kerak. Chet el ta'lism tizimlarida masofali (modul) o'qitishning tashkil topishi va rivojlanishi jarayonini o'rganishda ta'lism muassalarida masofali o'qitishni amaliy tashkil qilish turli shakllari va variantlarini hamda masofali ta'limgni didaktik ta'minlash vositalarini tahlil qilishga e'tiborni qaratish zarur. Masofali ta'lism - masofada turib o'quv axborotlarini almashish vositalariga asoslanuvchi maxsus axborot ta'lism muhiti yordamida ta'lism xizmatlari to'plamidan iborat. Masofali ta'lism - o'qituvchilarga o'rganilayotgan material asosiy hajmini yetkazib berishni o'qitish jarayonida o'qituvchilar va talabalarning interaktiv o'zaro aloqalarini, talabalarga o'rganilayotgan materialni mustaqil o'zlashtirish bo'yicha mustaqil ishlash imkonini berishni hamda o'qish jarayonida ularning olgan bilimlarini va ko'nikmalarini baholashni ta'minlovchi axborot texnologiyalari to'plami. Keltirilgan tushunchalardan taqqoslash tadqiqotini o'tkazishda dunyoda masofali o'qitish ta'lism

muhiti qanday shakllanishiga asosiy e'tiborni qaratish zarurligi ko'rinish turibdi. Shu bilan birga bizni birinchi navbatda ta'limning mana shu sohasi rivojlanishi tendensiyalari qiziqtiradi. Umuman ta'limning noan'anaviy shakllariga o'tishda dunyo tendensiyalari yangi axborot texnologiyalari bo'yicha tayyorgarlik olib boruvchi kasbiy o'quv yurtlarining soni ortib borishi kuzatiladi. Respublikamizda joriy etilgan uzlusiz ta'lim tizimi oldida qo'yilgan muhim vazifalardan biri ta'lim-tarbiya jarayonida innovatsion muhit yaratish sanaladi. Zamonaviy jamiyat o'zining tez va chuqur o'zgaruvchan tavsifiga ega bo'lib, bunday o'zgarishlar jamoatchilik tuzilmalari, jumladan, mustaqil davlatlar, shaxs va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar, demografik siyosat, urbanizatsiya jarayonlarida ko'zga yaqqol tashlanmoqda. Ta'lim ham global umumhamjamiyat tuzilmasining alohida tarkibiy qismi sifatida jamiyatda bo'layotgan barcha o'zgarishlarni hisobga olishi, ana shu asosda o'z tuzilishi va faoliyat mazmunini o'zgartirishi zarur. Bugungi kunda ta'limning jamiyat rivojlanish sur'atlaridan ortda qolayotganligi, ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan texnologiyalarning zamonaviy talablarga to'liq javob bermasligi haqidagi masala dunyo hamjamiyati tomonidan tez-tez e'tirof etilmoqda. Chunki ta'lim ham ijtimoiylashtirish vazifasini bajaruvchi sifatida jamiyatdagi o'zgarishlar ortidan borishi hamda uning rivojlanishiga o'z ta'sirini o'tkazishi kerak. Biroq jamiyat rivojlanishi va ta'lim tizimi o'rtasidagi munosabat murakkab ko'rinishga ega bo'lib, yuqori darajadagi jo'shqinlik bilan farqlanadi. Ta'lim barcha faol va sust o'zgarishlar ta'sirini qabul qilavermaydi, jamiyatda bo'layotgan voqealarga esa o'z ta'sirini o'tkazadi. Ana shu nuqtai nazardan ta'limdagи o'zgarishlar faqatgina natija sifatida emas, balki jamiyatning kelgusidagi o'ziga xos rivojlanish shartidir. Ma'lumki, fan va texnika jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan bugungi kunda ko'plab ilmiy bilimlar, tushuncha va tasavvurlar hajmi keskin ortib bormoqda. Bu, bir tomonidan, fan-texnikaning yangi soha va bo'limlarining taraqqiy etishi tufayli uning differensiallashuvini ta'minlayotgan bo'lsa, ikkinchi tomonidan, fanlar orasida integratsiya jarayonini vujudga keltirmoqda. Ma'lumki, bugun barcha davlatlar ta'limga imkon qadar ko'p yangilik kiritishga intilmoqda. Novatorlikka qiziqish uyg'otish, yangilik yaratishga intiluvchan shaxsni tarbiyalash uchun ta'limning o'zi yangiliklarga boy bo'lishi, unda ijodkorlik ruhi va muhiti hukm surishi lozim. Ana shunday dolzarblikdan kelib chiqqan holda, bugungi kunda pedagogikaning mustaqil sohasi – innovatsion pedagogika jadallik bilan rivojlanib bormoqda. Innovatsion ta'limning asosiy maqsadi ta'lim oluvchilarda keljakka mas'uliyat hissini va o'z-o'ziga ishonchni shakllantirishdir. J. Botkin boshchiligidagi olimlar guruhi "Rim klubi" ma'rzasida innovatsion ta'limni an'anaviy, ya'ni "normativ" ta'limga muqobil sifatida bilimlarni egallahshi asosiy turi sifatida tavsifladi. Normativli ta'lim "takrorlanuvchi vaziyatlarda faoliyat xulq-atvor qoidalarini o'zlashtirishga yo'naltirilgan" bo'lsa, innovatsion ta'lim yangi vaziyatlarda birgalikda harakatlanish qobiliyatini rivojlanirishni ko'zda tutadi. Dorivor o'simliklarni o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi ko'p jihatdan o'qituvchining darsga puxta tayyorgarlik ko'rishiga bog'liq bo'ladi, aks holda kutilgan natijani bermasligi tabiiy. Ta'lim-

tarbiya jarayonining samaradorligini orttirish bo'yicha o'zining xususiy metodikasini ishlab chiqishi zarur.

Jumladan O'zbekistonda ko'p tarqalgan shifobaxsh dorivor o'simliklardan, oddiy arslonquyruq – *Leonurus cardiaca* L. va Turkiston arslonquyruq – *Leonurus turkestanicus* V. Kresz. et Kurp.; yasnotkadoshlar – Lamiaceae (labguldoshlar – Labiate) oilasiga kiruvchi o'simlik xisoblanadi..

Arslonq'uiyruk 30–40 sm uzunlikda qirqilgan yer ustki qismidan (poya, barg va gullaridan) iborat. Poyasi to'rt qirrali, ichi kovak, qizil binafsha rangga bo'yalgan. Bargi to'q yashil, tukli (oddiy va Turkiston arslonquyruqlarining bargi esa tuksiz), poyaning pastki qismidagilari tuxumsimon shaklli va yuraksimon asosli, o'rta qismidagilari panjasimon 5 bo'lakka qirqilgan, yuqori qismidagilarni esa cho'ziq ellipssimon yoki lansetsimon, uch bo'lakli yoki uch bo'lakka qirqilgan bo'lib, poyada bandi bilan qarama-qarshi joylashgan. Gullari poyaning yuqori qismidagi barglari qo'llig'ida halqa shaklida o'rnashib, boshoqsimon to'pgul hosil qiladi. Gulkosachasi 5 tishli, naychasimon, qo'ng'iroqsimon, gultojisi ikki labli, pushti yoki pushti-binafsha rangli, otaligi 4 ta bo'lib, shundan yuqoridagi 2 tasi kalta, onalik tuguni to'rt bo'lakli, yuqoriga joylashgan



XIDF ga ko'ra mahsulot namligi 13%, umumiyligi kuli 12%, 10% li xlорид kislotada erimaydigan kuli 6%, sarg'aygan va qo'ng'ir rangga aylangan barglar 7%, poya bo'lakchalari 40%, yo'g'onligi 5 mm dan oshiq bo'lgan poyalar 3%, organik aralashmalar 3% hamda mineral aralashmalar 1% dan oshiq bo'lmasligi kerak.

Ishlatilishi. Arslonquyruqning dorivor preparatlari tinchlantiruvchi vosita sifatida (valeriana preparatlaridek) gipertoniya, nerv qo'zg'alishi va ba'zi yurak kasalliklari (yurak nevrozi, kardioskleroz)ni davolash uchun ishlatiladi.

Mahsulot tayyorlash. O'simlik gullaganida poyasining yuqori qismidan 30–40 sm uzunlikda o'roq bilan o'rib olinadi va soya yerda quritiladi.

Dorivor preparatlari. Damlama, nastoyka, suyuq ekstrakt. Mahsulot tinchlantiruvchi choy-yig'malar va Zdrenko yig'masi tarkibiga kiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Leon Lachman "armaceutical Dosage Forms: 'arenteral Medications, Second edition, Volume 2. 2nd edition., Informa 'ealt'care; 2 edition (Novemb Maxkamov S.M., Maxmudjonova K.S. Tayyor dori turlari texnologiyasi. Toshkent. 2010. "EXTREMUM 'RESS". 367 b. (darslik)
2. Maxkamov S.M., Maxmudjonova K.S. Tayyor dori turlari texnologiyasi. Toshkent. 2010. B. 255. (darslik).
3. Mirolimov M.M. Yig'indi preparatlar texnologiyasi. Toshkent. 2001. "Abu Ali Ibn Sino" 367 b.
4. Mirolimov M. Farmatsevtik texnologiya asoslari. Toshkent. 2007. "Fan" 343 b.
5. Sandee' Nema, Jo'n D. Ludwig (2010) "armaceutical Dosage Forms - 'arenteral Medications, T'ird edition: Volume 2: Facility Design, Sterilization and 'rocessing., CRC 'ress; 3 edition (August 26, 2010)
6. Turdaliev A. T. et al. Influence of irrigation with salty water on the composition of absorbed bases of hydromorphic structure of soil //IOP Conference Series: Earth and Environmental Science. – IOP Publishing, 2022. – Т. 1068. – №. 1. – С. 012047.
7. Абдурахимова М. А. Dorivor o 'simliklarning o 'sishi va rivojlanishi va dorivor xususiyatlaridan foydalanish //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. D3. – С. 35-42.
8. Abdurahimova M. et al. HEALING PROPERTIES OF MEDICINAL WHITE AND BLACK (SESAME) SESAME //Science and Innovation. – 2022. – Т. 1. – №. 7. – С. 100-104.
9. Abdurahimova M., Nazirjonov U., Muhammadjonov R. DORIVOR ECHINACEA PURPUREA O 'SIMLIGINING FOYDALI XUSUSIYATLARI VA UNDAN HALQ TABOBATIDA FOYALANISH //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. D6. – С. 197-201.
10. Abdurahimova M., Mamadaliyeva D., Siddiqova G. DORIVOR O 'SIMLIK ISIRIQNING SHIFOBAXSH XUSUSIYATLARI //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. D6. – С. 185-188.
11. Abdurahimova M., Nazirjonov U., Muhammadjonov R. USEFUL PROPERTIES OF THE MEDICINAL PLANT ESHINACEA PURPUREA AND ITS USAGE IN FOLK MEDICINE //Science and Innovation. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 197-201.
12. "Formakopiya" O'quv qo'llanma 2023 yil M.A.Abdurahimova